

MAVZU: OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI BARTARAF ETISHDA KUCH TUZILMALARI HARAKATI. (XITOY XALQ RESPUBLIKASI MISOLIDA)

*Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti,
mayor Axmedov Yolqin Yakubovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xitoy politsiyasi tomonidan ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashda qo'llanilgan usullar Gonkong politsiyasi harakati misolida ko'rib chiqilgan. Shuningdek politsiya tomonidan qo'llanilgan maxsus vositalar, halok qilmaydigan qurollar va o'q otar qurol qo'llash ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda qanchalik samarali ekanligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Gonkong politsiyasi, ommaviy tartibsizliklar, maxsus vositalar, noroziliklar, ko'zdan yosh oqizuvchi vositalar, granatalar.

Аннотация: В этой статье рассматриваются методы, используемые Китайской полицией для борьбы с массовыми беспорядками, на примере действий полиции Гонконга. Также будет рассмотрено, насколько эффективны специальные средства, нелетальное оружие и огнестрельное оружие, используемые полицией для подавления массовых беспорядков.

Ключевые слова: полиция Гонконга, массовые беспорядки, специальные средства, протесты, средство со слезоточивым действием, гранаты.

Annotation: This article examines the methods used by the Chinese police to fight mass riot using the example of the Hong Kong police movement. It is also considered how effective the use of special tools, non-lethal weapons and firearms used by the police are in dealing with mass unrest.

Key words: Hong Kong police, mass riot, special tools, protests, special means with tear action, grenade.


Hozirgi globallashuv zamonda butun dunyoning deyarli barcha davlatlarida ommaviy namoyishlar ko'plab sodir bo'lmoqda va bu namoyishlar bevosita ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketmoqda. Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida ham bunday ommaviy tartibsizliklar ro'y bermoqda. Jumladan Xitoy davlatida ham turli xil noroziliklar va ommaviy tartibsizliklar ro'y bermoqda, ko'pincha ish haqini to'lamaslik, yerlarni o'zlashtirish uchun tovon puli kamligi, mahalliy ekologik faollik ommaviy tartibsizliklar sodir bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu mamlakatda har yili o'n minglab norozilik namoyishlari bo'lib o'tadi. Milliy darajadagi norozilik namoyishlari kam kuzatiladi. Eng yirik norozilik namoyishlari 1959-yildagi Tibet qo'zg'oloni, 1989-yildagi Tiananmen maydonidagi norozilik namoyishlari, 1999-yil aprel oyida Zhongnanxayda Falun Gong amaliyotchilarining namoyishi, 2008-yildagi Tibet tartibsizliklari, 2009-yil iyul oyida Urumchi tartibsizliklari va 2022-yilda

COVID-19 noroziliklaridir. Eng yirik ommaviy tartibsizliklar shubhasiz Gongkongda sodir bo‘lgan tartibsizliklardir.

2019-yilda Gonkongdan Xitoyning materik qismiga ekstraditsiya qilishga imkon beradigan qonun hujjati rejalashtirilgan tufayli norozilik namoyishlari boshlanadi. Ushbu norozilik namoyishlari ommaviy tartibsizliklarga aylanib ketadi. Politsyaning bergen ma’lumotlarga ko‘ra, ular ommaviy tartibsizliklar vaqtida 6000 dan ortiq ko‘zdan yosh oqizuvchi gaz snaryadlari, 2400 ga yaqin rezina o‘qlar, 700 ga yaqin shimgichli granatalar va loviya qoplaridan 500 dan ortiq o‘q otishgan. Reuters tahliliga ko‘ra, politsiya norozilik namoyishlari paytida kamida 11 marta o‘q otar qurollardan o‘q otib, ikki kishini yaralagan.

Ommaviy tartibsizliklar vaqtida politsiya va namoyishchilar o‘rtasidagi qaramaqarshilik kuchayib borar ekan, ofitserlar olomonni nazorat qilish maqsadida bir qator choralarni qo‘llab, jumladan, ko‘zdan yosh oqizuvchi gaz, qalampir purkagichli balonlar, rezina o‘qlar, shimgichli granatalar va loviya patronlarini qo‘llash orqali olomonni tartqatishga kirishdi. Politsiya tomonidan qo‘llanilgan bunday maxsus vositalar ba’zi hududlarda yahshi samara bergen bo‘lsa ayrim hududlarda asosan binolarning ichida kam samarali ekanligini kuzatishlarimiz davomida guvohi bo‘lishimiz mumkin. Jumladan binolarning ichida qo‘llanilgan maxsus vositalar ayniqsa ko‘zdan yosh oqizuvchi granata va patronlar politsyaning o‘ziga ham ta’sir qilib, ularning harakatlarida noqulayliklar tug‘dirgan. Namoyishchilar bunga javoban o‘zlarining harakatlarini yoqib yuboradigan kokteylar tashlash, Pekinni qo‘llab-quvvatlovchi deb hisoblangan Xitoy materikidagi banklar va korxonalarini buzish, politsiya uchastkalariga g‘isht otish va ko‘chalarda politsiyachilarga qarshi kurashishdi, ba’zi hollarda metall panjaralar yordamida o‘z harakatlarini kuchaytirdilar.

Politsiya tomonidan qo‘llanilgan maxsus vositalar



Qalampirli sprey
yoki granulalar

Ko‘zdan yosh oqizuvchi
granata yoki patron

Halok qilmaydigan
snaryadlar rezina o‘qlar;
shimgichli granatalar;
qopga solingan fasollar

Ogohlantiruvchi
patronlar

Gonkongda sodir bo‘lgan ommaviy tartibsizliklar vaqtida politsiya iloji boricha maxsus vositalar va kuch ishlatishni minimallashtirishga harakat qilgan. “Biz minimal

talab qilinadigan kuch printsipidan foydalanamiz”, deb bayonot berdi ommaviy axborot vositalariga katta nazoratchi Vong. “Siz bizning politsiyamiz bunday vaziyatlarda qanchalik bardoshli bo‘lishga harakat qilayotganini ko‘rishingiz mumkin va bu biz keraksiz jarohatlar yetkazishni istamasligimiz sababli.” Darhaqiqat Gonkong politsiyasi olomon bilan to‘qashuvlarni oldini olish maqsadida ularni masofada ushslashga harakat qilgan va bu bilan har ikkalga tarafda qurbonlar va jarohatlarni oldini olishga harakat qilgan. Ommaviy tartibsizlik ishtirokchilarini masofada ushslash va ularni tarqatish maqsadida asosan maxsus vositalar, halok qilmaydigan qurollar va so‘nggi chora sifatida o‘q otar qurollardan foydalanilgan. Shuni alohida ta’kidlash lozimki bunday katta miqyosdagi va uzoq davom etgan ommaviy tartibsizliklarni politsiya qurbonlarsiz bartaraf etgani alohida e’tiborga muofiq.

Politsiya shuningdek olomonni tarqatish maqsadida, qichishtirish hususiyatiga ega bo‘lgan modda aralashtirilgan suv purkovchi maxsus texniklaridan foydalangan. Xavfsizlik bo‘yicha Qonunchilik kengashi komissiyasiga taqdim etilgan hujjatga ko‘ra, suv purkovchi mashinalarining yuqori qismida suyuqlikni ma’lum bir yo‘nalishda yoki tuman shaklida chiqaradigan ikkita purkagich mavjud. Ushbu purkagichlardan suv yoki pelargon kislotasi vanililamid eritmasini, Pava deb nomlanuvchi sintetik qichishtirish xususiyatini beruvchi vositani sepish mumkin.

Shuningdek ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish paytida politsiya ko‘zdan yosh oqizuvchi gazdan foydalanishning ikkita hujjatlashtirilgan usulini qo‘llagan: namoyishchilarga qo‘lda tashlangan gaz granatalari va granatamyotlardan otilgan snaryadlar.

CS GRANATA



Gonkong politsiyasi ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda asosan tarkibida CS gazlari bo‘lgan ko‘zdan yosh oqizuvchi maxsus vositalardan foydalangan. AQSH kasalliklarni proflaktika va nazorat qilish Markazining ma’lumotlariga ko‘ra, CS gazlari qo‘llanilganda ko‘rishni hiralashishi, yo‘tal, nafas qisishi, teriga reaksiya berishi va chanqoq kabi holatlar ro‘y beradi. Ko‘zdan yosh oqizuvchi vositalar ta’siriga qarshi ommaviy tartibsizlik ishtirokchilari ham turli usullarni qo‘llagan. Ko‘zdan yosh

oqizuvchi granatalar portlaganda sachrashdan himoyalanishda soyabonlardan foydalanish, niqob va ko‘zoynak taqish, terida qichishishni oldini olish uchun qo‘llarni polietilen plyonka bilan himoyalash usullari shular jumlasidandur. Ushbu ko‘zdan yosh oqizuvchi maxsus vositalar faqatgina ochiq joylarda qo‘llash uchun mo‘ljallangan bo‘lsada politsiya tomonidan metroda va binolar ichida qo‘llash holatlari kuzatilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni xulosa qilshimiz mumkinki ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo‘yicha harakatlarga shaxsiy tarkibni tayyorlashda ular bilan maxsus vositalarni to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha doimiy mashg‘ulotlar olib borish, shaxsiy tarkib tomonidan ushbu vositalarni to‘g‘ri qo‘llash orqali ommaviy tartibsizlik ishtirokchilari orasida halokat va jarohatlanishlarni oldini olish. Xalqaro huquq normalari talablari asosida maxsus vositalarni to‘g‘ri qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus vositalarni mo‘ljallanishi bo‘yicha qo‘llamaslik nafaqat tartibsizlik ishtirokchilari balki harbiy xizmatchi (hodim)larning o‘zlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi va ularning ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini yuqoridagi holatlardan amin bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek ochiq joylarda sodir bo‘layotgan ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda, olomonni tarqatishda suv purkovchi maxsus texnikalar ayniqla samarali deb hisoblaymiz. Zero ushbu maxsus texnikalar yordamida olomonni bevosita kuch tuzilmalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘qnash kelmasdan tarqatish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida har ikkala tarafda ham jarohatlanish va shu kabi og‘ir oqibatlarni oldini olishga imkon beradi.

Shuningdek hozirki kunga qadar sodir bo‘lgan ommaviy tartibsizlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashayotgan bo‘linmalar va ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot o‘rnatish vaziyatni yumshatishga, olomon tarafidan zo‘rlik ishlatish, o‘t qo‘yish kabi noqonuniy harakatlarni kamaytirishga sabab bo‘ladi. Ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari bilan to‘g‘ri muloqot tashkil qilish juda muhimligini inobatga olib kuch tuzilma bo‘linmalarida shaxsiy tarkibni maxsus kurslar tashkil qilish orqali o‘qitish ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda katta samara beradi deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Protest_and_dissent_in_China
2. <https://www.reuters.com/investigates/special-report/hong-kong-protests-violence/>
3. Jalilov N. Ommaviy tartibsizliklarning sodir etilishi ehtimollari hamda ularni bartaraf etishning o‘ziga hos xususiyatlari.
4. Sodiqov X.M. Ommaviy tartibsizliklarni o‘rganishdagi nazariy yondoshuv.
5. Samadov B.E. Xitoy xalq respublikasida politsiya mashg‘ulotlarini tashkil etish.